



THE ERA IN WHICH THE GREAT SCHOLAR OF HADITH AND HADITH, IMAM AL-BUKHARI, LIVED AND WORKED

Mirzamiddinov Asliddin Abdumuminovich

Lecturer at the Tashkent Islamic Institute

Raxmatullayev Ravshan Kushmuratovich

Gulistan State University

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15186819>

ARTICLE INFO

Received: 04th April 2025

Accepted: 09th April 2025

Online: 10th April 2025

KEYWORDS

Hadith, scientific works, muhaddith, scholar, debate, scholar, science, scientific circles, science of fiqh, education.

ABSTRACT

In the article, Imam al-Bukhari, a great scholar and thinker, hadith expert, left his invaluable scientific and spiritual-educational scientific heritage to all humanity. It is also emphasized that during his lifetime, he served to spread knowledge about hadith, establishing knowledge circles in various countries to convey the knowledge he received from his teachers to young students.

ЭПОХА, В КОТОРУЮ ЖИЛ И ТВОРИЛ ВЕЛИКИЙ УЧЕНЫЙ-ХАДИСОВЕД И ХАДИСОВЕД ИМАМ АЛЬ-БУХАРИ

Мирзамиддинов Аслиддин Абдумунинович

Преподаватель Ташкентского исламского института

Рахматуллаев Равшан Кушмуратович

Гулистанский государственный университет

Доктор философии (PhD) по техническим наукам

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15186819>

ARTICLE INFO

Received: 04th April 2025

Accepted: 09th April 2025

Online: 10th April 2025

KEYWORDS

Хадис, научные труды, мухаддис, ученый, дискуссия, ученый, наука, научные круги, наука фикх, образование.

ABSTRACT

В статье Имам аль-Бухари, великий учёный и мыслитель, знаток хадисов, оставил всему человечеству своё бесценное научное и духовно-просветительское научное наследие. Также подчеркивается, что при жизни он служил распространению знаний о хадисах, создавая кружки знаний в разных странах, чтобы передать знания, полученные от своих учителей, молодым ученикам.

BUYUK MUTAKALLIM VA MUHADDIS OLIM IMOM AL-BUXORIY YASHAGAN VA IJOD QILGAN DAVR

Mirzamiddinov Asliddin Abdumuminovich

Toshkent islom insitituti o'qituvchisi

Raxmatullayev Ravshan Kushmuratovich

Guliston davlat universiteti

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15186819>



ARTICLE INFO

Received: 04th April 2025

Accepted: 09th April 2025

Online: 10th April 2025

KEYWORDS

Hadis, ilmiy asarlar, muhaddis, alloma, munozara, olim, ilm-fan, ilm davralari, fiqh ilmi, ta'lim.

ABSTRACT

Maqolada Buyuk alloma va mutafakkir, Hadis ilmimig sultoni Imom al-Buxoriy o'zining bebaho ilmiy va ma'naviy – ma'rifiy ilmiy merosini butun insoniyatga qoldirgan. Shuningdek o'zining yashab ijod etgan davrida ustozlaridan olgan ilmlarini yosh tolibi ilmlarga yetkazish maqsadida turli mamlakatlarda ilm davralarini qurib, hadis ilmini yoyishga xizmat qilganligi yoritib o'tilgan.

Kirish. Buyuk mutakallim va muhaddis olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mag'iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy hijriy 194 yil shavvol oyining 13-kuni (810 yil 20 iyul)da tavallud topgan. IX asrda Eron va O'rta dengiz havzasi mamlakatlari bilan amaliy shaharlar, shu jumlan, Byxoro shahri ham gurkirab rivojlanib, ularning qiyofasi tubdan o'zgardi.

Imom al-Buxoriy davriga kelib islom Markaziy Osiyoda, shu jumladan, bora-bora butun Sharqda va jahondagi boshqa mamlakatlarda musulmon kalom ilmi olimlari markazi sifatida shuhrat topa borgan Buxoroda ham mafkuraning hukmron shakliga aylandi.

Yagona ulkan davlat bo'lgan xalifalik asta-sekin parchalana boshlagach, aftidan, Buxoroning kalom ta'limotining chekkadagi markazlaridan biri sifatidagi roli oshib borgan. Zarafshon daryosining o'rta oqimida Samarqand vohasi, quyi oqimida esa Byxopo vohasi yastanib yotganini eslatib o'tmoq zaryr. Byxopo shahri g'arbdan sharqqa tomon cho'zilgan, bir kismi janubi g'apbra turtib chiqqan shaklga ega hududdan iborat edi. Shahar mahallalarga bo'lingan bo'lib, ular feodal shaharlarning asosiy tuzilma birliklarini tashkil etardi, ijtimoiy-maishiy va ma'muriy ahamiyatga ega edi.

Ammo Buxoro shahri, Samarqand va Marv shaharlari singari, joyini o'zgartirmagan, shu bois uning topografik sharoiti IX asrda qanday bo'lsa, shundayligicha qolgandi. Buxoro topografik jihatdan hamma vaqt o'zining hozirgi o'rnida bo'lgan, xatto shahar rejasi, turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy larzalarga qaramay, keyingi ming yil ichida deyarli o'zgarmagan. Shahar, xatto (X asrdan keyingi) siyosiy tanazzuldan keyin ham, islom dinining quvvati va diniy ilmlar homiysi sifatidagi avvalgi shuhratini saqlab qolgani alohida e'tiborga loyikdir.

Imom al-Buxoriy yashagan davr bilan ilk Markaziy Osiyo tarixnavisligining eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri - A6y Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy yashab, ijod qilgan davr orasida yuz yil ham o'tmagandi.

Harshaxiyninr «Byxopo tarixi» asari 943-944 (boshqa ma'lumotlarga ko'ra 948-949) yillarda arab tilida yozilgan. Afsuski, bu asarning ilk to'lik matni saqlanmagan. Asarning bizgacha etib kelgan qismi esa arab tilidan fors tiliga qisqartirib qilingan tarjima varianti bo'lib, uni 1128 yilda farg'onalik Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Quboviy tarjima qilgan. Tarjimon qo'lyozmaga o'z shaxsiy kuzatishlarini ham qo'shib, Buxoro tarixi bo'yicha o'zi yashagan davrgacha bo'lgan voqealarni ham bayon qilgan.

Imom al-Buxoriy davridagi Buxoro haqidagi ilk ma'lumotlar IX asrga borib taqaladi. Bu davrda Buxoro Tohiriylarga bo'ysungan noib boshqaruvida edi. Shundan so'ng shahar Somoniylar tasarrufiga o'tib, bu sulola davlati emirilguniga qadar ularning hokimiyati ostida



bo'ldi. IX asr oxiri - X asrda Buxoro katta davlatning poytaxtiga hamda hukumat muassasalari joylashgan shaharga aylandi. Narshaxiy Buxoro shahrining tarixiy topografiyasi va uning ijtimoiy tuzilishi to'g'risida keltirgan ma'lumotlarni ko'raylik.

Imom al-Buxoriy yashagan davrda mahallalarga bo'linish bo'yicha qadimiy an'analar saqlanib qolganligi tasdiqlandi, deb hisoblash mumkin. Markaziy Osiyoda bunday bo'linish tarixi antik, davrlapdagi ixtisoslashgan hunarmandlar mahallalari ham bo'lgan shahar tuzilishiga borib taqaladi.

Narshaxiy ham Buxoro mahallalarini tilga oladi. Shaharning mahallalarga bo'linishi feodalizm davri uchun qonuniyatli hol edi. Qarangki hozirgi vaqtda ham shahar ma'muriy tuzilishida bunday bo'linish printsiplari mavjuddir. Narshaxiyning Buxoroni ko'chmanchi qabilalar hujumidan mudofaa qilish maqsadida 782-783 yillarda shahar atrofini devor bilan o'rash bo'yicha ishlar boshlangani to'g'risidagi ma'lumotlari diqqatga sazovor. Bu devorning qoldiqlari - «Kampir devor» (Narshaxiyda «Kanpirak devor». - Muharrir) hozir ham mavjud. Shaharning o'ziga kelganda esa, Narshaxiy asarida Buxoro shahrining yettita darvozasi sanab o'tiladi. Bular: Bozor (keyinchalik «Dari attoron» deb qayta nomlangan), Shahrison, Baniy Sa'd, (Narshaxiyda «Nov»), Haqq roh darvozasi (Rohi haq yoki Xafs darvozasi) dir.

Shahar sekin-asta yaqin vaqtgacha ham saqlanib kelgan qiyofasini kasb etdi: asosiy ko'chalar darvozalardan markaz tomon ketgan, ularning ikki tomoni bozor rastalaridan iborat edi. Rabod devor bilan 849-850 yillarda, ya'ni Imom al-Buxoriy davrida o'rab olingan edi. Abu Isxoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forisiy al-Istaxriy (850-937 yillar) va Abul Qosim ibn Havqal ma'lumotlariga ko'ra, 11 darvozali boshqa devor ham bo'lgan ekan.

Registon Darvozadan boshlab barcha maydonlarda saroylar, musofirxonalar, bog'lar, hovuzlar bo'lgan. Narshaxiy Buxoroda mahsus sayrbog' majmualari bo'lganligini ko'rsatib o'tgan. Shahardan oqib o'tadigan asosiy ariq Rudi Zar deb atalgan. Shaharning o'zida suv turli joylardagi maxsus hovuzlarda saqlangan. Hovuzlardan tashqari, ichimlik suv olinadigan quduqlar ham bo'lgan, biroq ularning suvi har doim ham sifatli bo'lavermagan.

Narshaxiy Buxoro hammomlari to'g'risida ham ma'lumot keltirib o'tgan. Imom al-Buxoriy davriga kelib shaharda, Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlaridagi kabi, jome' masjidi bo'lgan. Keyinchalik, Narshaxiy ta'kidlaganidek, uning yonida o'n devon: vazir (boshqa barcha devonlarni nazorat qilib turish uchun), mustavfiy (xazina), amid al-mulk (boshqa mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar), sohib ash-shurat (qo'shinga oziq-ovqat va maosh berish), sohib al-barid (davlat ehtiyoji uchun pochta boshlig'i), muhtasib (bozorni, tarozuni va boshqa o'lchovlarni tekshirib turish), mushriflar (xazina daromadlari va xarajatlari), davlat yerlari, qozixonalar va vaqf mulki (jamoaga, davlatga yoki xususiy shaxslarga diniy yoxud xayriya ehtiyojlari uchun berilgan mulk) dan iborat devonlar uchun o'nta muhtasham bino qurilgan.

Buxoro hukmdorlari - Buxorxudotlar qasrlari Buxoro ko'handizida ham, Ramiton yaqinidagi Varaxsha qishlog'ida va boshqa joylarda bo'lgandi. Narshaxiy ma'lumotiga ko'ra, keyinchalik Buxoro hukmdori o'zlari uchun turli joylarda, shu jumladan, ko'handiz va Registonga yaqin joyda ham saroylar qurishgan. Buxoro aholisining asosiy qismi hunarmandchilik bilan, qisman chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Shuningdek, qatop muassasalar va qo'shinda turli xizmatlarni bajarishgan. Buxoro atrofida yerni sun'iy



sug'orish madaniyati yuqori darajaga ko'tarilgan, bu yerda murakkab irrigatsiya inshootlari hamda kanallarning keng tarmog'i mavjud bo'lgan.

X asrdan so'ng Buxoro dinning qonun-qoidalariga qat'iy rioya etiladigan shahar sifatida shuxrat topdi. U islom va shariat barqaror bo'lgan «Buxoroi sharif», deb atala boshlandi.

Buyuk mutakallim va muhaddis olim Imom al-Buxoriy yashagan davrdagi Buxoro to'g'risida yuqorida keltirilgan ma'lumotlar uning ona shahri tarixini ancha to'la aks ettiradi.

Yana shuni ta'kidlash muhimki, Buxoro shahrining musulmon dunyosi diniy tafakkurining e'tirof etilgan markazi sifatidagi dovrug'i Imom al-Buxoriy xayotligidayok Sharq mamlakatlariga tarqalgan edi. Bu yerda Imom al-Buxoriyning ko'plab muhlislari va shogirdlari yashab, ijod etishgan. Sharqning yirik shaharlaridan biri bo'lgan Buxoroning tarixiy geografik ahvoli viloyatlararo va xalqaro savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarda uning uchun g'oyat manfaatli xolatni vujudga keltirgan edi.

Buxoro sayyohlar, iqtisodiyot va madaniyat arboblari, tadbirkorlar olami vakillari nigohini o'ziga tortgandi. Natijada al-Buxoriyning barhayot musannifatlari jahonga yoyilishi uchun sharoit yaratilgandi.

Imom al-Buxoriyning nomi doimo Buxoroning faxri bo'lgan va shunday bo'lib qoladigan buyuk olimlar qatorida tilga olingan. Imom al-Byxopiyning ismi Myhammad, kunyasi Aby Abdulloh, laqabi ba'zan Imom al-muhaddisiyn (muhaddislarning imomi, peshvosi), ba'zan amir al-mo'miniyn fil-hadis (hadis ilmining amiri, sultoni) va nasabi Myhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'ira ibn Bardazbeh ibn Bazazbehdir. So'nggi ikki ism (ibn Bardazbeh ibn Bazazbeh) dan ko'rnnib turibdiki, Imom al-Buxoriyning asl nasabi ajamlarga borib taqaladi. Bu fikr talay adabnyotlarda qayd qilingan bo'lib, ko'pchilik muhadislarning Ta'kidlashlaricha, «Bardazbeh» so'zi arabcha «zori» (zirot, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi kishi) ma'nosini bildiradi. Mashhur olim Imom Tojuddin as-Subkiy o'zining «at-Tabaqot ash-shofi'iyya al-kubro» («Shofe'iy ulug' tabaqalap») (1) nomli yirik asarida Bardazbehning otasini Bazazbeh deb ko'rsatgan. Imom al-Buxoriy haqida yozgan ko'pchilik olimlar esa uning nasabini faqat Bardazbehra bog'lab tugatganlar.

Imom al-Buxoriny otasining bobosi al-Mug'ira Byxoro hokimi yaman al-Ju'fiy qo'lida iymon keltirgan bo'lib, Buxoroni vatan tutib yashab qolgan. O'sha paytdagi taomilga ko'ra, kishi kimning vositasida iymon keltirsa, o'sha zotning qabilasiga mansub hisoblangan. Bu odat qabul qilingan dinga sadoqat belgisi bo'lib, arabcha «nisbat ul-vilo' fi-l-islom» (islom diniga sodiqlik nisbati) deb atalgan. Albatta, al-Mug'ira ham o'sha davrda ommaviy tus olgan ushbu urfdan xoli bo'lmaganligidan uning o'zi ham, avlodlari ham, shy jumladan, Imom al-Buxoriy ham Ju'fiy deb atala boshlandilar. Imom al-Buxoriyning nasli-nasabi haqida tarixchilar keltirgan ma'lumotlardan yana shuni qayd kilish kerakki, uning bobosi Bardazbehning ismini ba'zilar aslida al-Ahnaq deb keltirganlar. Sahiy, qo'li ochik kishilar «Hotamtoy» deb aytilgani singari, Ahnaq deb, odatda, eng aqlli, dono kishilarga nisbat berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Imom al-Buxoriyning bobosining haqiqiy ismi Bardazbex bo'lsada, u oqil, zukko inson bo'lganligidan al-Ahnaq laqabi bilan ham atalgan.

Imom al-Buxoriy otasining ismi Ismoil, kunyasi Abul Hacan bo'lib, o'z davrining etuk muhaddislaridan sanalgan. U Imom Molikning shogirdi va ashoblaridan bo'lib, tijorat ishlari bilan ham shug'ulangan. Afsuski, hozirgacha uning qalamiga mansub biror asar haqida aniq ma'lumotga ega emasmiz. Birok uni Hammud ibn Zayd, Imom Molik, Abu Muoviya kabi o'z



davrining yirik muhaddislaridan hadislar rivoyat qilgani, Abdulloh ibn al-Muborakning suhbatida bo'lib, undan tarbiyat olgani haqidagi xabarlar manbalarda keltiriladi. Uning shogirdlaridan iroqlik bir qancha olimlar, Ahmad ibn Hafs, Nasr ibn Husayn va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Imom al-Buxoriy «at-Ta'rix al-kabir» («Katta tarix») asarida otasining tarjimai holi haqida talay ma'lumotlar keltirildi. Tarixchi al-Hofiz ibn Habbon o'zining «Kitab as-Siqqot» («Buyuk insonlar haqida kitob») nomli asarida Ismoil ibn Ibrohim, ya'ni al-Byxoriynin otasi, Hammud ibn Zayd va Molikdan hadislar rivoyat qilgan, undan esa iroqliklar hadislar rivoyat qilganlap, deb ta'kidlaydi.

Manbalarla zikr qilinishicha alloma Ismoil o'ta taqvodor, xudojo'y, halol bir inson bo'lgan. Tarixchi Ahiyd ibn Hafsnings yozganlari by fikrimizning yorqin dalilidir. Abu Abdulloh (Imom al-Buxoriy)ning otasi banlalikni bajo keltirayotgan chog'ida uni ziyorat qilganimda menga u: «Bor molu dunyomda va harom yo'l bilan, na shubhali, nopok yo'l bilan topilgan bir dirhamni ham bilmayman», - deb iltijo qilganida mening nafasim bo'g'ilib, butun vujudim uning ulug'vorligi oldida hech narsaday tuyuldi», - deb yozgan. Myallif, shuningdek, Imom al-Buxorining otasiga xos bo'lgan yana bir qancha asl insoniy fazilatlar o'sha davrdagi kamdankam kishilapda uchraganini ham qayd qiladi.

Imom al-Buxoriyning onasi ham takvodor, diyonatli, oqila ayol va har xil karomatlar sohibasi bo'lgan. U Alloh taolaga iltijo etib, doimo duolar o'qib yuradigan pokiza ayol sifatida el orasida tanilgan edi. Ma'lumki, Imom al-Buxoriy yoshligida ko'zi jarohatlanib, ko'rish qobiliyati susaygan bo'lib, tabiblar har qancha urinmasinlar uni davolay olmadilar. Kunlardan bir kuni al-Buxoriyning onasi tushida Ibrohim alayhissalomni ko'radi. Xalilulloh bu mushfiqa onaga qarab: «Ey volida! Sening duolaringning kupligidan Alloh taolo o'g'lingga to'liq ko'rish qobiliyatini qaytardi», - deb xitob qiganlar. Volidai muhtaramadan: «Uyqumdan uyg'onsam, o'g'lim Muhammadning ko'z nuri to'liq qaytib tuzalib ketibdi», - degan rivoyat mavjuddir. Biroq biz Imom al-Buxoriyning ko'zi yoshligida ojiz bo'lib qolganligi, uning sabablari, so'ngra unga ko'z quvvati to'lig'icha qaytganligi tafsilotlari haqida manbalarda aniq ma'lumotlar uchratmadik. Vaholanki, u «at-Ta'rix al-kabir» nomli asarini o'zining yorug'ida yozganligi haqida aniq ma'lumotlar bor [1].

Imom al-Buxoriyniig shogirdlari

Imom al-Buxoriy shogirdlari haqida gapiradigan bo'lsak, ular behad ko'p bo'lgan. Bu xususda olim al-Farabiy: «Bevosita Imom al-Buxoriyning o'zidan to'qsonming odam hadis eshitgan», - deb yozadi. Imom al-Buxoriy ustozlarinin ko'pchiligi uning saboqlariga qatnashardilar, o'zlariga foydali bilib, bilimlarini ziyoda qiladigan ma'lumotlarni undan yozib olardilar. Muarrixlaru muhaddislarining yozishlaricha, hatto al-Buxoriydan saboq olib, undan istifoda qilganlar orasida uning mashhur ustozlari ham bo'lgan. Ular doimo Imom al-Buxoriyning ilmiy majlislarida hozir bo'lardilar. Ulardan Abdulloh ibn Muhammad al-Musnadiy, Abdulloh ibn Munir, Ahmad ibn Ishoq as-Sirmoriy, Muhammad ibn Xalaf, Ibn Qutayba va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ularning hammalari o'z davrining fazilatli, ilmiy komil olimlari hisoblanardi. Shunday ulug' martabaga ega bo'lishlariga qaramasdan ular Imom al-Buxoriydan saboq olganlar.

Imom al-Buxoriyga tengqur bo'lib, unga tayangan va uning fazlu kamolining yuksakligini tan olib, ilmiy majlislariga qatnashgan buyuk olimlardan Imom Abu Zur'a ar-Roziy, Abu



Hotam ar-Roziy, Ibrohim al-Harbiy, Abdulloh ibn Mutiyn, Ishoq ibn Ahmad ibn Ziyrak al-Forsiy, Abu Bakr Muhammad ibn Ishoq ibn Xaziyma, al-Qosim ibn Zakariyo, Muhammad ibn Abdulloh al-Xadramiy, Muhammad ibn Qutayba, Abu Bakr al-A'iyin va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Mazkur olimlar rijol (roviylar), tarix, hadis, jarh (illatli hadislar), ta'diyl ilmlari bo'yicha o'z davrining buyuk allomalari hisoblanardi.

Imom al-Buxoriyning shogirdlari orasida shon-shuhratda yuksaklikka etishib, buyuk sharafiga muyassar bo'lgan, hadis va fiqh ilmlarining asosiy jihatlarini mukammal bilganlardan «as-Sahih» kitobining muallifi Imom Muslim ibn al-Hajjoj, «Sunan» kitobining sohibi Imom Abdurrahmon an-Naso'iy, «al-Jomi'» asarining sohibi Imom Abu Iso Termiziy, musulmon ilmlari bo'yicha qator tasnifotlarning muallifi Imom Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Imom ad-Doramiy, mashhur faqih, «as-Sahih»lardan birining sohibi Imom Ibn Xaziyma va boshqalar ham bor edi. Imom al-Buxoriyning shogirdlari bo'lgan ushbu allomalar o'z davrining yirik muhaddislari vafiq olimlari hisoblanardi [2].

«Al-Jomi' as-sahih» Imom al-Buxoriyning shoh asari

Imom al-Buxoriyning «al-Jomi' as-sahih» asari islom dini ta'limotiga ko'ra, Kur'oni karimdan keyingi ikkinchi asosiy manba hisoblanadi. Bu asarning to'liq nomi «Al-Jomi' as-saxix al-musnad min hadis Rasulilloh sallallohu alayhi va sallam va sunanihi va ayyomihi» yoki, tarixchi Badruddin al-Ayniyning yozishicha, «al-Jomi' al-musnad ac-sahih al-muhtasar min umuri Rasulilloh sallallohu alayhi va sallam va sunanihi va ayyomihi» bo'lsa-da, hadis ilmida qisqacha «al-Jomi' as-sahih» («Ishonchli to'plam»), aksar holda esa «Sahih al-Buxoriy» nomi bilan mashhurdir.

Ushbu asarning ta'lif etilish sabablari haqida olimlar o'rtasida ikki xil fikr mavjud. Jumladan, olim Ibrohim ibn Ma'qal an-Nasafiy (854 yilda vafot etgan) Imom al-Buxoriy nomidan shunday xikoya qiladi: «Bir kun biz Ishoq ibn Rohvayhning huzurida bo'lgandik. Shunda u: «Birontangiz Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning sahih hadislarini muhtasar bir kitob tarzida jam qilsangiz qoshki edi», - deb qoldi. Bu gap mening qalbinga qo'rg'oshindek mahkam o'rnashib qoldi, o'shandan boshlab «al-Jomi' as-sahih» asarimni yozishga kirishdim». Tarixchi an-Navaviy keltirgan ikkinchi fikr quyidagicha talqin qilingan: «Muhammad ibn Sulaymon ibn Forisning xikoyasi: men Imom al-Buxoriy hazratlari shunday deganlarini eshitganman: «Tushimda Payg'ambar alayhissalomni ko'ribman, go'yoki men u zotning ro'barolarida turibmanu qo'limdagi elpig'ich bilan ul zoti sharifdan nimalarnidir haydayapman. Men bu voqea haqida tushning ta'birini aytuvchilardan so'rasam, ular: Siz Payg'ambar alayhissalom qavllarini kizbdan, ya'ni xato-yu yolg'ondan tozalagansiz, deyishdi. Mana shu gap mening zimmamga «al-Jomi' ac-sahih»ni yozishni yukladi». Imom al-Buxoriy g'oyatda taqvodop va pokiza inson bo'lganligidan Janob payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning sahih hadislarini to'plashga juda katta mas'uliyat va halollik bilan yondashgan. Shu boisdan ham allomaning o'zi: «Ac-sahih» kitobimga tahorat kilib ikki rak'at namoz o'qimasdan turib bironta ham hadis kiritmaranman, - deb ta'kidlaydi. O'rni kelganda ta'kidlash joizki, payg'ambar hadislariga bag'ishlanib o'sha davrda yaratilgan asarlarga xilmal xil xadislar bilan bir qatorda sahobalarning qavllariyu tobe'inlarning fatvolari ham kiritilganyu. Bunga misol qilib mashhur olim Molik ibn Anasning (712-795 yillar) «al-Muvatto» asarini va boshqa qator asarlarni ko'rsatish mumkin [3].



Imom al-Buxoriyning bu yirik asari, muallifning o'zi ta'kidlashicha ham, aksar olimlarning yozishlaricha ham, olti ming hadisdan saralanib, sahihlari tanlab olingan va o'n olti yil davomida ta'lif etilgan. Asar qaerda yozilgan, degan savol tug'ilishi ham tabiiy. Bu masala haqida ham turli fikrlar aytilgan. Tarixchi Ibn Hojar al Askaloniylar mana shu fikrlarni jamlab shunday xulosaga kelgan: Imom al Buxoriy 6y yirik asarini yozishni va uning asosiy mundarijasini tuzishni Makkai mukarramada – Bayt al-Xaramda bo'lgan vaqtdan boshlab, ona yurti Buxoroda nihoyasiga etkazib, oqqa ko'chirgan. Albatta, alloma o'z asaridga kiritgan aksar xodislarni xorijiy yurtlarda safarda bo'lganida to'plagan. Uz asarining ishonchli manba bo'lishiga alohida e'tibor bilan qaragan, shu bois uni uch marta muhaddislarga namuna bo'ladigan, Payg'ambar alayhissalomning sahih xodislarini o'zida mujassam qilgan mukamal bir asar yaratildi. Imom al-Buxoriyning hadis ilmi va uning turli tarmoqlari, roviylar tarixlaridan har tomonlama to'liq va keng qamrovli ilmga ega bo'lishi, ko'p sonli ustozu shayhlardan hadislar yozib olganligi va nihoyat, uning quvvai xofizasi aql bovar qilmaydigan darajada kuchliligi, noyob qobilyati va fidoyiligi - mana shu omillar allomaga «al-Jomi as-sahih»dek ilmiy va amaliy jihatdan yuksak saviyada bo'lgan yirik asar yaratishi imkoniyatini bepdi. Shu bilan birga, aytish kerakki, muallif o'z asari uchun ma'lumotlar to'plashga va ularni ta'lif etishga ko'p ham shoshilmadi, balki chuqur ilmiy poydevorga (manjahga) tayangan mukammal reja asosida ish olib bordi. Bu jihatlar hadislar to'plahda ham, ularni asar sifatida yahlit tartibga keltirishda ham, uning yozilish muhlatida (o'n olti yil davomida) ham, shunday noyob asar yapatilishi uchun katta ahamiyat kasb etadigan ilmiy muhit mavjud bo'lgan turli-tuman (Makka, Madina, Basra, Bag'dod, Byxoro) maharlarda tasnif etilishida ham o'ziga xos buyuk asar yaratilishi uchun poydevor bo'lib hizmat qildi.

Imom al-Buxoriyning o'ziga xos uslubi bo'lib, bunda u yiqqan hadislar roviylarining xissasi alohida o'rin tutadi. Chunonchi, bu xususda manbalarda «Sahih»ni Imom al-Buxoriydan etmish, to'qson, yuz ming roviy rivoyat qilganligi qayd etiladi. Uning roviylari orasida Imom Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Zur'a, Imom at-Tepmiziy, Ibn Xuzayma kabi hadis ilmining etuk darg'alari ham bo'lgan. Hadislarni roviylardan yozib olishga ham Imom al-Buxoriy juda katta mas'uliyat va ehtiyotkorlik bilan yondashib, faqat eng ishonchli ulamolardangina, qayta-qayta tekshirib yozib olgan. By haqda Imom al-Buxoriy: «Biron kishidan hadis yozib olishim boshqalarnikiga o'xshamas edi. Men agar biron shahsdan hadis yozmokchi bo'lsam, eng avvalo ismi sharifi, kunyasi, nasl-nasabi, aytayotgan hadisini qanday manbadan olganligi, uning nushalari haqidagi xabarlarini so'rab-surishtirar edim, ammo boshqalar bu masalalarga ko'p ham e'tibor bermaydilar», - degan. Imom al-Buxoriy butun ilmiy faoliyatida mana shu tartibotga qat'iy amal qildi. Alloma Abu Ja'fap al-Uqayliyninr yozishicha, Imom al-Buxoriy «Sahih» asarini yozib tugatgach, uni Ahmad ibn Hanbal, Yaxyo ibn Ma'iyin, Ali ibn al-Madiyniy va boshqa mashhur olimlarga ko'rsatganda, ular bu asarni katta mamnuniyat bilan ma'qullaganlar.

Avval ta'kidlab o'tilganidek, Imom al-Buxoriyning bu to'plamiga fakat sahih hadislar kiritilgan. Albatta, bu o'ta mashaqqatli va xayrli ishni amalga oshirishda muallif ma'lum qonun-qoidaga, boshqacha qilib aytganla, shartlarga rioya qilgan. Umyman xadisshunoslik ilmda tan olingan olti sahih tuplamning mualliflari ham, boshqa muhaddislar ham asarlarini o'ziga xos shartlarga binoan yaratganlar. Bu haqda olimlar tomonidan mahsus asarlar ham bitilgan. Shular jumlasiga Ibn Tohir al-Muqaddasiyning «Shurut al-aimmati as-sitta» («Olti



mashhur olimning shartlari»), Aby Bakr al-Xozimiy qalamiga mansub «Shurut al-aimmati al-hamsa» («Besh manhur olimning shartlari») kabi asarlarini ko'rsatish mumkin. Manbalarda Imom al-Buxoriyning shartlari deb ataladigan ushbu qoidalar, asosan, quyidagilardan iborat: isnod muttasil, ya'ni ketma-ket, uzluksiz bo'lishi, hadis rivoyat qiluvchi islom diniga mansub, haqqo'y bo'lishi, gapida yolg'on va pala-partishlik bo'lmasligi zarur; (roviy) adolat sifatlarini o'zida mujassam qilgan, o'zini tuta biladigan vazmin, o'tkir zehili, xato nuqsoni kam, iymon – e'tiqodi komil inson bo'lishi shart edi. Mana shu shartlar to'liq mujassam bo'lganda o'zi eshitgan sahih hadislarning aksar qismini Imom al-Buxoriy «Sahih» asariga kiritdi. Allomaning o'zi ham: «Fakat sahih (ishonchli, to'g'ri) bo'lgan hadislarnigina «al-Jomi'»ga kiritdim», - deb alohida ta'kidlagan.

Termizlik mashxur muxaddis Abu Iso at-Termiziy Imom al-Buxoriyga ham shogird, ham safdosh sifatida bo'lib, ularning o'zaro munosabatlari ibratli bir xol bo'lganligi boisidan bunga bir qadar mufassalroq to'xtalish zarur. Imom al-Buxoriy uzok yillar Sharkning turli mamlakatlarida bo'lgandan keyin umrining oxirlarida (863-868yillar) Nishopurda yashab, madrasada hadis ilmidan dars bergan. O'sha paytda Nishopur musulmon Sharkidagi eng yirik ilmiy markazlardan biri bo'lganidan ko'p mashxur olimlar shu shaharda to'plangan edilar.

At-Termiziy o'z ustozini va safdoshi al-Buxoriyning butun umri davomida xurmatlab, unga samimiy sadokatda bo'lgan. Arab tarixchisi Shamsuddin az-Zaxabiy (1274-1347 yillap) «Tazkirat ul-huffoz» («Hofizlar haqida tazkira») asarida yozishicha, at-Termiziy o'z ustozining vafoti tufayli kattik kaygu-alamga botib, ko'p yiglaganidan xatto ko'zlari ko'r bo'lib kolib, uzok yillar ko'zi ojiz xolda yashagan.

Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim bo'lgan, balki u o'zining go'zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvati, purhimmati va beqiyos saxovati bilan boshkalardan tomomila ajralib turgan.

Buyuk vatandoshimizning nomi butun islom dunyosida samimiy mehr-muhabbat, katta hurmat-e'tibor bilan tilga olinadi. Sharqning turli burchaklarida Imom al-Buxoriy nomini eshitmagan biror kimsa, uning nomi yetmagan biror joy bo'lmasa kerak. Taqdir taqozosi bilan bir vaqtlar Sharq F'arbnig turli-tuman mamlakatlariga borib, u joylarda muqim yashab qolgan vatandoshlarimizni Imom al-Byxopiynig yurtdoshlari, nabiralari – buhoriylar deb, ularga nisbatan izzat-ikrom, alohida ehtirom bilan muomalada bo'lganlar [4].

References:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. Tuzuvchilar: Z.Islomov va A.Abdullaev. Toshkent.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
2. Moziydan taralgan ziyo. Imom al Buxoriy, Tug'ilgan yili 1998;
3. Abu Zakariyo Yahyo Ibn Sharaf Navaviy. Riyozus solihun. Tarjimon: Anvar Ahmad. Toshkent.: Movarounnahr,2004.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasini. 1-4-juzlar. Toshkent.: Sharq, nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011.
5. Uvatov U., Imom al-Buxoriy, T., 1998;
6. Madaminov S, Imom Buxoriy ta'rifi, T., 1996;



7. Imom al-Buxoriy — muhaddislar sultoni [nashrga tayyorlovchilar Usmon hoji Temurxon o'g'li, Baxtiyor Nabixon ug'li], T., 1998;
8. Dushan Fayziy Zarafshoniy, Imom al-Buxoriy, T., 1998;
9. Babaxanov Sh.Z., Velikiye muxaddisi o mire i drujbe mejdu narodami, T., 1998;
10. Ma'naviyat yulduzlari [2 nashri], T., 2001. Ubaydulla Uvatov.